

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil yanvar-avgust

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,8 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1.4 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **2.0 barobarga ko'proq**


Joriy yilning 8 oy yakuni bo'yicha Respublikada 30,5 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,9 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 foizga kamaygan hamda ularning soni 15,9 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 6,8 foiz (18,2 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 286,7 mingtani tashkil etgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (20,9 foiz), Andijon (9,5 foiz), Toshkent (9,3 foiz) va Farg'ona (8,9 foiz) viloyatlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Korxonalar va tashkilotlar

## Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, (%)




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,5 foizni tashkil etgan, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,5 foizni tashkil etganligini korsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1.4 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,5 foiz savdoda, 17,0 foiz sanoatda, 8,5 foiz qurulishda, 7,5 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 foiz tashish va saqlash, 2,2 foiz axborot va aloqa, 2,0 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,2 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda boshqa faoliyat turlarida (-1,1 f.p.), savdoda (-0,4f.p.), axborot va aloqada (-0,2 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,5 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,3 f.p.), shuningdek tashish va saqlash hamda qurulish (+0,2 f.p dan) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) (%)



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Davlat statistika qo'mitasi  
Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

S.Begmatov  
(0371) 230-80-91